

BO‘LAJAK IQTISODCHILARNING “SOFT SKILLS” KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MALAKALI MUTAXASSIS TAYYORLASH JARAYONINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

Karimova N.U.
O‘zDJTU, dotsent

Iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan yangi kasblar paydo bo‘lib, ba’zi ko‘nikmalarga ehtiyoj susayadi yoki yo‘qoladi. Shu sababli, oliy ta’lim tizimi mehnat bozori dinamikasiga sezgir bo‘lishi kerakligini ta’kidlash lozim. Ta’lim muassasalari va mas’ul idoralar mehnat bozoridagi talablarni doimiy o‘rganib borishi, tegishli tarzda kadrlar tayyorlash rejalarini yangilab turishi zarur. Xususan, yurtimizda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, “professional ta’lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashmaganligi, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sqinlik qilmoqda” (4). Mazkur holatlarga yechim topish maqsadida so‘ngi yillarda qator farmon va qarorlar, qonun loyihalari ishlab chiqildi. Jumladan, 2024-yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 157-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ta’lim sohasidagi xalqaro standartlar talablari asosida ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishi quyidagi ishlarning amaliyotda ijrosini ta’minlashda dolzarb deb hisoblash mumkin:

tegishli ta’lim bosqichi yakunida ta’lim oluvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni davlat, jamiyat va mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda belgilash;

ta’lim natijalarining xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasida mavjud ta’lim turlari YUNESKOning “Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi” darajalari bilan muvofiqlashtirish;

ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, vatanga fidoyilik va milliy g‘urur hissini singdirish hamda o‘z majburiyatlarini mas’uliyat bilan bajarish bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish;

variativ va invariativ komponentlarni joriy etish orqali ta’lim jarayonini tizimlashtirish;

mehnat bozori talablariga muvofiq kadrlarni tayyorlashda xalqaro tajribani inobatga olish kabi vazifalarni amalga oshirish mazkur qarorning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi (3). Bunga ko‘ra:

- ta'lim turlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ta'lim sohasidagi xalqaro standartlar talablariga moslashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ta'lim bosqichlari YUNESKOning “Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (International Standard Classification of Education (ISCED-2011))” (Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan muvofiqligi ta'minlashi;

-Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti Xalqaro tasniflagichning 6-darajasidagi (bakalavriat yoki unga tenglashtirilgan) va 7-darajasidagi (magistratura yoki unga tenglashtirilgan) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilishi belgilab qo'yildi.

2024-yilda yana bir milliy malaka tizimini rivojlantirish, mehnat bozori va ta'limning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, malakaga bo'lgan talablarni huquqiy va institutsional jihatdan tartibga solish hamda barcha uchun hayoti davomida ta'lim olish va mehnat faoliyatini izchil davom ettirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadini ko'zda tutuvchi “O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 345-sonli Prezident qarori tasdiqlandi. Mazkur hujjatda qator ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib ularning quyidagilari tadqiqot ishimizning amaliy ahamiyatini o'zida aks ettiradi:

malaka ramkalari, kasbiy standartlar va malaka talablarini ish beruvchilar talablari asosida ishlab chiqish, joriy qilish va rivojlantirish;

yangi avlod kasbiy standartlar asosida mehnat munosabatlarini tartibga solish, oliy va professional ta'lim dasturlarini takomillashtirish hamda kadrlar tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;

malakalarning xalqaro miqyosda tan olinishini, milliy malaka darajalarining ilg'or xorijiy davlatlar malaka darajalari bilan integratsiya qilinishini ta'minlash;

norasmiy va informal orttirilgan ko'nikma va malakalarni tan olish (“Recognition of Prior Learning”) tizimini joriy qilish;

ko'nikmalarni prognozlashtirish (“skills anticipation”), ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojlarni tahlil qilish (“skills needs analysis”), ko'nikmalar bilan bog'liq kamchiliklarni o'rganish (“skills gap analysis”) vositalari va metodologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish (1).

O'zbekiston Respublikasining milliy malakalar ramkasi mehnat bozori va ta'lim tizimini bog'lovchi vosita bo'lib, malaka darajalarining umumlashtirilgan tavsifi va ularga O'zbekiston Respublikasi hududida erishishning asosiy yo'llarini belgilaydi. Milliy malakalar ramkasi quyidagi prinsiplarni hisobga olgan holda qo'llanadi:

keng qamrovlilik — ta'limning barcha turlarini, shu jumladan, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarini qamrab olishi va zamonaviy malaka turlarini aks ettirishi;

shaffoflik va taqqoslanuvchanlik — xalqaro taqqoslash uchun qo'llanma vazifasini bajarishi;

oddiydan murakkabga — quyi bosqichdan yuqori darajaga o'tishda o'qitish natijalarining ortishi va murakkabligini aks ettirishi;

moslashuvchanlik — mehnat bozorida paydo bo'ladigan malakalarning yangi turlarini ishlab chiqish va malaka ramkasiga oson integratsiya qilish imkonini berishi (2). Moslashuvchan ta'lim modeli doirasida o'quv dasturlari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb va ko'nikmalarga tezkor moslashtiriladi.

Milliy malakalar ramkasining ko‘rsatkichlari quyidagicha tavsiflanadi:



Milliy malakalar ramkasini tahlil qilish orqali har bir ko‘rsatkichda “soft skills” komponentlarining u yoki bu shaklda aks etganini ko‘rishimiz mumkin.

Milliy malakalar ramkasida “soft skills” ning aks etishi

MMRning asosiy komponenti	Soft Skills bilan bog‘liqligi
Bilimlar	Bilimlarning mustahkamligi, ularni qo‘llay olish, tushunish — bunda tahliliy, tanqidiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalari zarur.
Amaliy ko‘nikmalar	Harakat va xatti-harakatlarni bajarish, jarayonlarni boshqarish — bunda vaqtni boshqarish, muammoni hal qilish, kreativlik, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari kerak.
Shaxsiy kasbiy kompetensiyalar	va Mustaqil fikrlash, mas’uliyat, etakchilik, qaror qabul qilish — bunda emotsional barqarorlik, ijtimoiy kommunikatsiya, stressga chidamlilik kabi yumshoq ko‘nikmalar muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 30.09.2024 yildagi PQ-345-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2024 yildagi PQ-345-son “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.03.2024 yildagi 157-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.09.2019 yildagi PF-5812-son.